

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TASAVVURINI RIVOJLANTIRISHDA
SEMIOTIKANING ROLI****Abdusamatov Alisher Sobirovich****Termiz iqtisodiyot va servis universiteti****“Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim” kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD) Termiz (O'zbekiston)****E-mail: aabdusamatov912gmail.com Tel: 91-577-62-99****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15704055>**

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi kichik yoshli o'quvchilarga semiotik yondashun asosida semiotikaning sohalari va ularning chegaralari hamda turlari, semiotika jihatlarining ahamiyati, tarixi va qo'llanilishi, zarur pedagogik shart-sharoitlari, olimlar va ularning qarashlari, semiotikaning tarmoqlari, yo'nalishlari va qo'llanilishi haqida ma'lumot berilgan. kundalik hayotimizda. Undan qanday foydalanishimiz aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Semiotika, ta'lim, ta'lim tizimi, falsafa, semasiologiya, pragmatika, sintaktika.

Borliqning tasavvurda manzara hosil qilishiga, ya'ni bilish ob'ekti elementlarining shaxs tomonidan anglanishiga xizmat qiluvchi tushunchalar bizning ongimizda xayoliy (fikriy) timsollar yoki tasavvuriy modellar ko'rinishida mavjud bo'ladi. Hamonoki, ta'lim oluvchi ongida bunday timsollar mavjud bo'lmas ekan, atrof-borliq xossalarini namoyon etguvchi faktlar o'zlashtirilmaydi, binobarin, shaxs takomili amalga oshmay qolaveradi.

Unutmaslik lozimki, xayoliy (fikriy) timsollar surat emas: ularni inson miyasining boshqa qismi fikrlash faoliyati olib boriladigan miya qismiga tasvir sifatida taqdim etadi, deb o'ylash xato. Xayoliy timsollar – sub'ektning olam manzarasi haqidagi tasavvurlarini mujassam etuvchi shartli belgilarning tizimlashtirilgan majmuasidir [3].

Yuqoridagi xulosalardan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida xayoliy (fikriy) timsollar majmuasini shakllantirish tamoyillarini yuzaga chiqarish mumkin bo'ladi. Bu tamoyillarga quyidagilar kiradi:

Individuallik va sub'ektivlik tamoyili. Ya'ni inobatga olish lozimki, xayoliy (fikriy) timsollar individual va sub'ektivdir. Bu hol esa bilish ob'ektlar haqida shakllana boradigan fikriy timsollarning adekvatlik darajasi va ularning boshlang'ich ta'lim dasturiga kiruvchi o'quv fanlari mazmun-mundarijasiga muvofiqligini o'rganish muammosini keltirib chiqaradi.

Bilishning mohiyati va tabiati xususidagi Aristotel qarashlaridan kelib chiqiladigan bo'lsa, fikriy timsollar – mavjudiyatning alohida elementlarda namoyon bo'luvchi xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan tahliliy-umumlashtiruvchi faoliyat natijasida shakllanadigan fikriy yaralmadir (konstruktdir). Bunday xususiyatga ega bo'lgan faoliyat o'z-o'zidan assortorik mulohazalarga olib kelishiga qaramasdan, u tadqiq etilayotgan hodisani (ob'ektni) o'rganishdagi muhim bosqichdir.

Axborotni vizuallashtirish tamoyili. Bolada ijodiylikni (ijodiy tafakkurni ham deyish mumkin) rivojlantirishga qaratilgan ta'limda fikriy timsollarning adekvatligi ta'lim oluvchining tahliliy-umumlashtiruvchilik faoliyati asnosida olingan natijalarning ta'lim jarayonida axborotning vizuallashtirilishi, ya'ni «ko'rinmas ob'ektni shartli belgilar yordamida ko'rinuvchi ob'ektlarga aylantirish» orqali «gomomorfizm+oddiylik» formulasi asosida ta'minlanishi mumkin [1].

Bu formulaning ma'nosi shuki, belgilar orqali vizuallashtirilgan fikriy (xayoliy) timsollar muayyan darajada moddiylik xususiyatlarini oladi va bu xususiyatlar o'quv fanlariga oid tushunchalarning mazmunini adekvat tarzda aks ettiradi.

«Agar belgilar (ishoralar) timsolni to'liq aks ettira olsa, ular o'zida mujassam etilgan mavjudlikning bir qismiga aylanadi» [2]. Yangi davr Yevropa ratsionalizmi vakillari (Dekart, Bekon, Spinoza) timsollar orqali fikrlashning arxaik tafakkurga xos bo'lgan elementlarini inkor etadilar. Murakkab tizimlarni o'rganishga bag'ishlangan zamonaviy tadqiqotlarda timsolli fikrlashning zarurati tabiat, atrof-borliq sirlarini arxaik darajadan ko'ra yuksakroq darajada anglab yetishga imkon yaratadi.

Demak, ushbu o'rinda axborotni vizuallashtirish tamoyilini o'rinli deb hisoblash mumkin, shuningdek, «gomeomorfizm+oddiylik» formulasining mohiyati quyidagicha talqin etiladi:

- muammoli vaziyatning ko'rgazmali tasvirida faqat va faqat ayni muammoli vaziyatning yechimi bilan bog'liq, shu bilan birga tadqiqot predmeti hisoblangan mavjudlik (ob'ekt) ga aloqador xususiyatlarga aks etadi. V.P. Zinchenkoga ko'ra, ko'rgazmali belgilar vositasida bilish ob'ekti timsolini yaratish fikrlash va umumlashtirishning alohida ko'rinishi hisoblanadi, umuman, ob'ekt haqidagi bu tarzda fikrlash vizual semantika deb yuritiladi.

Har qanday bilish ob'ekti ham bilim manbasi hisoblanadi va umumqabul qilingan belgilar (ramzlar) yordamida ma'lum ma'noda «moddiylashtiriladi». Qabul qilingan ishora va belgilar (ramzlar, timosllar):

- birinchidan, muayyan ob'ektning belgisi (nomlanishi) hisoblanadi;
- ikkinchidan, har qanday belgi kabi aynan o'zi ifoda etadigan ob'ektga xos va boshqa har qanday ob'ektga hech qanday aloqador emas;
- uchinchidan, ushbu belgi (ramz) bilan ifoda etiladigan ob'ektga denonatlik munosabatida bo'lgan boshqa ob'ektning o'rnini bosa olmaydi.

Metodologiya nuqtai nazaridan bilish ob'ektiga oid timsolli fikrlarni bunday (ya'ni belgi, ramziy belgilar, sxemalar orqali) ifodalash o'quv harakatlari qaratilgan ob'ektni to'liq qamrab oladi. Qolaversa, bunday belgilar turli ma'nolarni ifodalash, ikki fikrlilik kabi holatlarni to'liq inkor etadi, bu esa faqat o'rganilayotgan ob'ektga xos (va boshqa o'xshash ob'ektga mutloq xos bo'lmagan) xususiyatlarni qisqa fursat ichida va eng muhimi, ishonchli usullar yordamida yuzaga chiqarish imkonini beradi.

Bu jarayonda bilish ob'ektini o'rganishga kirishgan sub'ektning kognitiv va intellektual faoliyat doirasida sodir etadigan bilish harakatlari «belgidan – ma'noga» tartibida amalga osha boradi. Inobatga olish lozimki, belgilar orqali ma'noni ochishga yo'naltirilgan bilish harakatlarida muayyan belgining genezisi (hamda uning paydo bo'lish tarixi) ijodiy jihatdan rivojlantiruvchi ta'lim uchun ahamiyatsiz.

Misol uchun «A» tovushini ifodalovchi belgining jamiyatda, ijtimoiy munosabatlarda, umuman boshqa sohalarda qo'llanilish ko'lami, uning iste'molga kiritilish tarixi ta'lim oluvchining kognitiv imkoniyatlariga ta'sir etmaydi. Shu barobarida, belgilarning avtonimlarini chuqur anglangan holda ishlatilishi bolani ijodiy rivojlantirishda mahsuldorroq deya e'tirof etiladi. Masalan, «[]» belgisi orqali ifoda etiladigan algebraik ob'ektning xususiyatlarini chuqurroq o'zlashtirish uchun mazkur belgining avtonimini mufassal bilish katta ahamiyatga egadir.

Belgilar majmuasini ishlab chiqish va ularni tizim holiga keltirish ijodiy rivojlantiruvchi ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqqan zarurat o'laroq, bilish faolligining yuksalishiga zamin yaratdi.

Bugungi kunda didaktika va pedagogikadagi rivojlantiruvchi ta'lim vakillari o'rtasidagi munosabatlarda aynan belgilar tizimini o'z ichiga oluvchi "til" atamasi keng qo'llanilmoqda va biz yuqorida belgilar orqali ushbu tilda fikr va ifodalarni betakror, original tarzda yetkazish amaliyotining afzalliklariga bir necha bor to'xtalib o'tdik.

Belgilar, ramziy belgilar, belgilar majmuasi va sxemalar o'rtasidagi bog'liqliklarga e'tibor qiladigan bo'lsak, "fanniy til" tushunchasining muayyan o'quv faniga xos belgilardan iborat majmuaning aynan o'sha o'quv fanini o'qitish qonuniyatlari asosida sxematik ifoda etilishidir, degan xulosaga kelishimiz mumkin bo'ladi. Bunda har bir sxema o'z ishlatilish tarzini "o'zi uqtirib turadi". Agar belgi orqali ifoda etiladigan ma'no aniq bo'lsa, ta'lim oluvchi ayni ma'noni keltirib chiqaruvchi funktsiyalar haqida ham tasavvurga ega bo'ladi, holbuki, bu funktsiyalar bevosita o'rganish ob'ekti sifatida berilmaydi. Belgilardan iborat sxemalarni talqin qilish va ular orqali jarayonning natijasini tashxislash fikrlovchi inson tomonidan amalga oshiriladigan bilish harakatlarining bir qismidir [4].

Bolalarga, xususan, kichik yoshdagi bolalarga ta'lim berishda «belgidan ma'noga» tartibi asosida o'qitishning yo'naltirilganligini o'rganib chiqish shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich rivojlantiruvchi bilimlar mazmunini o'zlashtirish borasidagi bilimlarning eng qiyin bosqichi o'quvchilarning zimmasiga tushadi: bunda o'quvchilar belgilar ustida amallar bajarish asnosida stixiyali tarzda belgi orqali ifoda etilgan tegishli timsollarni tasavvur qilishlari lozim bo'ladi va bu tasavvur zarur darajada adekvatlikka ega bo'lishi talab etiladi.

"Belgidan ma'noga" tamoyili. Bilish jarayonida yuqorida keltirib o'tilgan usullarning ustivorligi bolalarda bilish ob'ekti haqida turlicha tasavvurlarning shakllanishiga va o'qituvchi aralashuvi bilan bilish ob'ektlarining adekvat timsoli yaratilishiga zamin yaratadi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atamanskaya M.S., Fizika o'qitishning shaxsiy-semantik modeli // Rostov n/d.: Rosizdat, 2015. – S. 124.
2. Dutova, N.V. Madaniyatlararo muloqot kontekstida gender noverbal xulq-atvori [Matn] / N.V.Dutova // Transbaikal davlat universiteti: monografiya / N.V.Dutova. – Chita, 2014. – 120 b.
3. Galaktionova T. G. "Matn pedagogikasi: semiotik yechim tajribasi". [Matn] / T. G. Galaktionova. – Sankt-Peterburg, 2013. – 379 b.
4. Kolpakov V.M. Boshqaruv usullari // Katta kutubxona. 2006 - 2011.
5. Komenskiy, Ya.A. Tanlangan pedagogik ishlar [Matn] / Ya.A. Komenskiy. – T. 2. – M.: Pedagogika, 1982. – 576 b.
6. Maksimova, G.P. Universitet o'qituvchisining kommunikativ madaniyati va uning kasbiy faoliyatdagi rivojlanishi: dis. ...kand. ped. Sci. Rostov n/d., 2000. - 179 p.